

URUG'LI VA DANAKLI MEVALI O'SIMLIKLARNING KLASSIFIKATSIYASI, GEOGRAFIK TARQALISHI VA EVOLYUTSIYAVIY AHAMIYATI

Mamajonova Mushtariy Muhiddin qizi

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ANIQ VA TABIIY FANLAR FAKULTETI BIOLOGIYA YO'NALISHI TALABASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15519036>

Annotatsiya: Ushbu tezisdan urug'li va danakli mevali o'simliklarning sistematik joylashuvi, ularning kelib chiqish hududlari, hayotiy shakllari, biologik va iqtisodiy ahamiyati keng yoritilgan. Bundan tashqari, bu o'simliklarning evolyutsiyaviy taraqqiyoti, madaniylashtirish jarayonlari hamda insoniyat hayotidagi roli ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tesis zamonaviy botanik tadqiqotlar va klassifikatsiya mezonlariga asoslanadi.

Kalit so'zlar: urug'li mevalar, danakli mevalar, sistematika, geografik tarqalish, kelib chiqish markazlari, hayotiy shakllar, evolyutsiya, madaniylashtirish.

Mevali o'simliklar — bu inson salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik barqarorlikda muhim o'rin tutuvchi biologik resurslardir. Mevalar o'zining ozuqaviy, dorivor, estetik va agroekologik ahamiyati bilan e'tiborni tortadi. Mevali o'simliklar, ayniqsa urug'li va danakli turlari, yer yuzida keng tarqalgan va ko'p asrlik madaniy tarixga ega.

Urug'li mevali o'simliklar odatda bir necha urug'ni saqlovchi go'shtli yoki quruq mevalarga ega bo'ladi. Ularning eng mashhur vakillari Rosaceae, Rutaceae, Cucurbitaceae, Solanaceae kabi oilalarga kiradi. Masalan, olma (*Malus domestica*), nok (*Pyrus communis*), behi (*Cydonia oblonga*), anor (*Punica granatum*), uzum (*Vitis vinifera*) kabi turlar yer yuzining turli mintaqalarida qadimdan yetishtirib kelingan. Bu o'simliklar odatda o'zida ko'p miqdorda vitamin, organik kislotalar va mikroelementlar saqlaydi.

Danakli mevali o'simliklar bir dona yirik urug'ga (danakka) ega bo'lgan, asosan go'shtli mevali daraxt va butalardan iborat. Ular Rosaceae oilasining Prunoideae (yoki Amygdaloideae) subfamilyasiga mansub. Gilos (*Prunus cerasus*), olcha (*Prunus avium*), o'rik (*Prunus armeniaca*), shaftoli (*Prunus persica*), bodom (*Prunus amygdalus*) kabilar ushbu guruhga kiradi. Ushbu turlar yuqori darajadagi biologik moslashuvchanlik va seleksiya salohiyatiga ega.

Klassifikatsiya jihatdan, mevali o'simliklar ikki asosiy guruhga bo'linadi:

1. Urug'li mevalilar (ko'p urug'li yoki urug'chi mevalar).
2. Danakli mevalilar (bir urug'li yoki danakli mevalar).

Bu guruhlar o'simliklarning morfologik, anatomik va reproduktiv xususiyatlariga asoslanib ajratiladi. Zamonaviy molekulyar genetika va filogenetik tadqiqotlar ushbu tasnifni yanada takomillashtirmoqda.

Geografik tarqalish nuqtai nazaridan, urug'li va danakli mevali o'simliklarning asosiy kelib chiqish markazlari sifatida quyidagi hududlar ajratiladi (N. I. Vavilov ta'limoti asosida):

1. Markaziy Osiyo (olma, nok, o'rik);
2. Xitoy (shaftoli, xurmo);
3. Kavkaz (beh, gilos); Janubiy Amerika (pomidor, kartoshka, yer yong'oq);
4. Yaqin Sharq (uzum, anjir, zaytun).

Mazkur hududlar nafaqat o'simliklarning yovvoyi ajdodlari mavjud bo'lgan joylar, balki ularning madaniylashtirilgan shakllari paydo bo'lgan markazlar hisoblanadi. Hayotiy shakllar jihatidan, urug'li va danakli mevali o'simliklar ko'pincha ko'p yillik o'simliklar bo'lib, daraxtlar,

butalar va yarimbutalar shaklida uchraydi. Evolyutsiyaviy taraqqiyot nuqtai nazaridan, bu o'simliklar million yillar davomida tabiiy tanlanish va odamlar tomonidan olib borilgan sun'iy seleksiya natijasida turli xil nav va shakllarga ega bo'lgan.

Zamonaviy botanik tadqiqotlar, ayniqsa molekulyar markerlar, genetik barcoding, filogenetik daraxtlar yordamida bu o'simliklarning kelib chiqish tarixi, o'zaro qarindoshlik darajasi va evolyutsion yo'nalishlari aniqroq ochib berilmoqda.

Urug'li va danakli mevali o'simliklar turli xil ekologik muhitlarda rivojlangan, muhim iqtisodiy va oziq-ovqat ahamiyatiga ega bo'lgan o'simliklardir. Ularning sistematik o'rganilishi seleksiya, genofondni saqlab qolish, ekologik barqarorlikni ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Shu sababli, bu guruhga mansub o'simliklarning tasnifi, tarqalishi va evolyutsiyasi har tomonlama chuqur o'rganilishi lozim.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Prator, L. Shamsuvaliyeva, E. Sulaymonov, X. Axunov, K. Ibodov, V. Mahmudov Botanika (Morfologiya, Anatomiya, Sistematika, Geobotanika) TA'LIM NASHRIYOTI". TOSHKENT – 2010.
2. A.Q. QAYIMOV, E.T. BERDIYEV DENDROLOGIYA Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa jodiy uyi. Toshkent – 2012.
3. R. Yunusov, L. Yuldoshov F. Ganiyeva. Meva ekinlari biologiyasi O'quv qo'llanma. Buxoro 2023-yil